

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Asatulloeva

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5

R.A.Ortiqov

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari 10

Q.V.Yo'ldor

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik 14

A.G.Sabirdinov

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi 19

D.G'.Gafurova

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari 27

H.X.Алиева

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32

H.X.Алиева

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35

H.X.Алиева

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41

L.A.Abdullayeva

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46

M.R.Allamberganova

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51

U.M.Askarova

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56

A.A.Qosimov

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61

M.E.Qobilov

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69

G.X.Ismoilova

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73

U.M.Askarova

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni 78

J.A.Akhrorova

Metonymy and its relation with discourse 81

Sh.U.Nosirova

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84

Sh.U.Nosirova

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni 89

U.M.Askarova, D.X.Xolbekova

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari 93

A.R.Kosimov

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari 97

Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105



UO'K: 811.511.131'282'373.231'367.626.2

**SURXONDARYO VILOYATI QIPCHOQ SHEVASI ANTROPONIMIKASIDA
ENANTIOSEMIYA****ЭНАНТИОСЕМИЯ В АНТРОПОНИМИКЕ КИПЧАКСКОГО ДИАЛЕКТА
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ****ENANTIOSEMY IN THE ANTHRONYMY OF THE KIPCHAK DIALECT OF
SURKHANDARYA REGION****Qobilov Mirziyo Eshnozard o'g'li** 
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati qipchoq shevasida qo'llaniladigan antroponimlar misolida enantiosemiya hodisasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — mahalliy nutq tizimida enantiosemiya holatlarini aniqlash, ularning semantik xususiyatlarini ochib berish hamda bu hodisaning lingvistik va madaniy asoslarini yoritishdan iborat. Maqolada mavjud ilmiy manbalar tahlil qilinib, metodologik yondashuvlar asosida real nutqiy materiallar o'rganiladi va umumiy xulosalar chiqariladi.

Аннотация

В данной статье на примере антропонимов, употребляемых в кипчакском говоре Сурхандарьинской области, анализируется явление энантиосемии. Основная цель исследования заключается в выявлении случаев энантиосемии в локальной речевой системе, раскрытии их семантических особенностей, а также в рассмотрении лингвистических и культурных основ данного явления. В статье проводится анализ существующих научных источников, на основе методологических подходов изучаются реальные речевые материалы и формулируются общие выводы.

Abstract

This article analyzes the phenomenon of enantiosemy through the example of anthroponyms used in the Kipchak dialect of the Surkhandarya region. The main objective of the study is to identify occurrences of enantiosemy in the local speech system, to reveal their semantic features, and to highlight the linguistic and cultural foundations of this phenomenon. The article reviews existing scholarly sources, examines authentic linguistic material based on methodological approaches, and formulates general conclusions.

Kalit so'zlar: enantiosemiya, antroponimika, qipchoq shevasi, Surxondaryo, semantik tafovut, lisoniy belgi, nutqiy konnotatsiya, shakldosh antonim, o'zbek tilshunosligi, semantik tahlil, mahalliy tafakkur.

Ключевые слова: энантиосемия, антропонимика, кипчакский говор, Сурхандарья, семантическое различие, языковой признак, речевая коннотация, омонимичный антоним, узбекское языкознание, семантический анализ, локальное мышление.

Key words: enantiosemy, anthroponymy, Qipchaq dialect, Surkhandarya, semantic distinction, linguistic feature, speech connotation, homonymous antonym, Uzbek linguistics, semantic analysis, local thinking.

KIRISH

Til – inson tafakkurining eng muhim ifoda vositasi bo'lib, unda jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasi mujassam bo'ladi. Har bir tilning shevalari esa bu tajribaning eng nozik qatlamlarini aks ettiradi. O'zbek tilining qipchoq shevalari, xususan, Surxondaryo viloyatida shakllangan mahalliy nutq tizimi, lingvistik jihatdan o'ziga xos semantik hodisalarni o'zida mujassam etgan. Bu shevalarda uchraydigan antroponimlar, ya'ni inson ismlari nafaqat nominativ funksiyani bajaradi, balki mahalliy tafakkur, e'tiqod, madaniyat va semantik dinamikani ham ifodalaydi.

Antroponimika – inson nomlarini o'rganadigan tilshunoslik sohasi – so'nggi yillarda semantik tahlil nuqtayi nazaridan alohida e'tiborni talab qilmoqda. Ayniqsa, antroponimlardagi **enantiosemiya** hodisasi tilning semantik tizimidagi murakkablikni ochib beradi.

Enantiosemiya – tilshunoslikda leksik sathga xos bo'lgan murakkab semantik hodisa bo'lib, u bir so'z yoki frazeologik birlik tarkibida mavjud bo'lgan ikki qarama-qarshi ma'noning o'zaro zidlanishiga asoslanadi. Bu hodisa til tizimining semantik dinamikasini, ya'ni ma'no shakllanishi va o'zgarishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Enantiosemiya lingvistik kontekstdagi semantik ambivalentlikni ifodalaydi, ya'ni bir til birligi ijobiy va salbiy konnotatsiyalarni bir vaqtning o'zida yoki turli kontekstlarda ifodalashi mumkin.

Termin etimologik jihatdan qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, *“en”* – *“ichki”*, *“anti”* – *“qarama-qarshi”*, *“sema”* – *“belgi”* degan ma'nolarni anglatadi. Bu nomlanish mazkur hodisaning mohiyatini aniq aks ettiradi, ya'ni til birligi ichida mavjud bo'lgan semantik qarama-qarshilik. Enantiosemiya hodisasi ko'pincha uzual va okkazonal ma'nolar o'rtasidagi ziddiyat orqali namoyon bo'ladi. Bu esa uni lisoniy va nutqiy enantiosemiya turlariga ajratish imkonini beradi.

Leksik birliklarda enantiosemiya holatining mavjudligi tilning semantik tizimida shakl va mazmun o'rtasidagi murakkab, ko'p qatlamli munosabatni ko'rsatadi. Bu hodisa nafaqat adabiy til darajasida, balki mahalliy shevalarda, ayniqsa, Surxondaryo qipchoq shevasi antroponimikasında ham faol kuzatiladi. Mahalliy nutqda bir qator antroponimlar – masalan, *“Nazar”*, *“Karomat”*, *“Bosim”*, *“Dono”*, *“Ipak”* – kontekstdan kelib chiqib, ijobiy yoki salbiy semantik yuklama bilan qo'llanilishi mumkin. Bu esa enantiosemiya hodisasining antroponimik tafakkurda ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Enantiosemiya fenomeniga turkologiyada to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita munosabat bildirilgan. Xususan, tatar, qo'miq va qozoq tilshunosligida antonimiya masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda bu hodisa yo'l-yo'lakay tilga olingan. Bu holat enantiosemiya tushunchasining turkiy tillarda hali to'liq mustaqil nazariy asosga ega bo'lmaganligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, ayrim tadqiqotlarda antonimiyadagi shakldoshlik va semantik zidliklar enantiosemiya bilan bog'liq jihatlar sifatida ko'rib chiqilgan.

O'zbek tilshunosligida enantiosemiya masalasiga birinchi bo'lib S.Usmonov e'tibor qaratgan. U bu hodisani *“shakldosh antonim”* deb atagan va uni antonimiyadan farqli semantik hodisa sifatida izohlashga harakat qilgan [2, 38-41]. So'nggi yillarda B.Yusuf va N.Mahmudov kabi olimlar tomonidan bu mavzuga bag'ishlangan alohida ilmiy maqolalar e'lon qilindi [6, 85].

B.Yusuf enantiosemiyani eski o'zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan so'zlar misolida tahlil qilgan. U bu hodisani antonimiyadan farqli, o'ziga xos semantik hodisa sifatida baholagan [3, 33-39]. Tilda *“bemahal”* kabi so'zlarning *“juda kech”* va *“juda erta”* ma'nolarini ifodalashi enantiosemiya holatining yorqin namunasidir.

N.Mahmudov esa enantiosemiya hodisasini hozirgi o'zbek tilida nutqiy darajada namoyon bo'lishini allofroniyaning bir ko'rinishi sifatida izohlaydi. U bu hodisaning tilning barcha sathlarida – fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajalarda – kuzatilishi mumkinligini ta'kidlaydi [4, 16-25]. Mahmudov lisoniy belgi asimmetriyasi, ya'ni shakl va ma'no o'rtasidagi nomuvofiqlik – enantiosemiya bilan bevosita bog'liq ekanligini – monografik planda asoslab bergan [4, 3-9].

Tilshunoslar enantiosemiya hodisasini uzual va okkazonal ma'nolar o'rtasidagi zidlikka ko'ra lisoniy va nutqiy enantiosemiya turlariga ajratadilar. Lisoniy enantiosemiya – bu til tizimida mavjud bo'lgan, uzual ma'nolar orasidagi semantik zidlikdir. Nutqiy enantiosemiya esa kontekstga bog'liq holda yuzaga keladigan, okkazonal ma'nolar o'rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi.

Bu hodisa shaxs, narsa, o'rin-joy, payt, belgi, miqdor, harakat-holat kabi semantik toifalar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Masalan, *“Karomat”* so'zining *“karomat ko'rsatmoq”* (ijobiy) va *“karomat ko'rsatmoq”* (salbiy) ma'nolari o'rtasidagi zidlik – lisoniy enantiosemiya holatidir. Bu kabi misollar tilning semantik tizimida shakl va ma'no o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek tilshunosligida enantiosemiya hodisasini o'rgangan bir qator olimlar mavjud bo'lib, ularning tadqiqotlari bu murakkab semantik hodisaning nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan. Quyida eng muhim tadqiqotchilar va ularning hissasi keltirilgan:

Olimlar	Asosiy hissasi
S.Usmonov	Enantiosemiya hodisasiga birinchi bo'lib e'tibor qaratgan. Uni <i>“shakldosh antonim”</i> deb atagan.

TILSHUNOSLIK

B.Yusuf	Eski o'zbek tilida, xususan Alisher Navoiy asarlarida enantiosemik birliklarni tahlil qilgan.
N.Mahmudov	Enantiosemiya hodisasini hozirgi o'zbek tilida nutqiy darajada ko'rib chiqqan. Uni allofroniyani bir ko'rinishi sifatida baholagan.
Y.Odilov	Enantiosemiya bo'yicha maxsus doktorlik dissertatsiyasi yozgan. Leksik va frazeologik birliklar misolida tahlil qilgan.

Ushbu olimlarning tadqiqotlarini o'rganish jarayonida, ularning izlanishlari enantiosemiya hodisasini o'zbek tilining leksik sathida, adabiy til va shevalar kontekstida o'rganishga zamin yaratganligi ko'zga tashandi. Ayniqsa, **S.Usmonov** va **N.Mahmudov**larning nazariy yondashuvlari bu hodisani antonimlardan farqli jihatlarini ochib berganligi bilan alohida e'tiborga loyiqdir.

Bundan tashqari, Y.Odilov o'zining leksik va frazeologik tadqiqotlarida quyidagi misollar yordamida enantiosemiya hodisasini ochib bergan:

So'z:

"Ko'z" so'zi – *"ko'rmoq"* yoki *"so'qir"*.

"Jinni" so'zi – *"aqlidan ozgan, ruhiy kasallikka chalingan"* yoki *"o'zini yaqin olish, erkalash"*.

Ibora:

"Ko'z yonmoq" – *"jahli chiqmoq, asabiylashmoq"* yoki *"juda xursand bo'lmoq"*.

"Bosh iring'amoq" – *"tasdiqlamoq"* yoki *"inkor qilmoq"*.

"Ostona xatlamok" – *"biror joyga kirmok"* yoki *"biror joydan chiqmoq"* [6, 85] kabilar.

Bu tadqiqotlardan kelib chiqib biz ham Surxondaryo viloyati qipchoq sheva vakillari antroponimlar tizimida enantiosemiya hodisasining voqelanishini ko'rib chiqdik. Surxondaryo qipchoq shevasida qo'llaniladigan antroponimlar semantik jihatdan ko'p qatlamli bo'lib, ularning ba'zilarida enantiosemiya hodisasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holat bir nomning ijobiy va salbiy ma'nolarni bir vaqtning o'zida ifodalashi yoki o'sha so'z markaziy mazmunidan bir-biriga teskari ikki xil ma'noning anglanishi, ya'ni ularning ma'no markazida kontekstga qarab semantik yuklamaning o'zgarishi bilan izohlanadi. Quyida ayrim antroponimlar misolida bu hodisani tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Nazar – antroponim, "Nazar" so'zi mahalliy nutqda ikki xil semantik yuklama bilan qo'llaniladi. Bir tomondan, u *"qarash"*, *"mehr qo'yish"*, *"e'tibor berish"* kabi ijobiy konnotatsiyaga ega. Boshqa tomondan esa, *"ko'z tegishi"*, *"salbiy ta'sir"* ma'nosini anglatadi. Bu ikki ma'no orasidagi ziddiyat lisoniy enantiosemiya holatini ifodalaydi. Ism sifatida "Nazar" ijobiy niyat bilan tanlansa-da, mahalliy e'tiqodlarda ko'z tegish xavfi bilan bog'liq salbiy konnotatsiya ham mavjud.

Karomat – antroponim, "Karomat" antroponimi odatda *"mo'jiza"*, *"ezgulik"*, *"ilohiy fazilat"* ma'nosida ijobiy semantik yuklama bilan qo'llaniladi. Biroq, mahalliy nutqda bu so'z kinoyaviy tarzda salbiy holatni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, *"karomatingni ko'rsatib qo'yding"* iborasi tanqidiy ohangda, salbiy konnotatsiyada qo'llanilishi mumkin. Bu holat nutqiy enantiosemiya sifatida baholanadi. **Bosim** – antroponim, "Bosim" so'zi odatda *"pastga bosish"*, *"zo'ravonlik"*, *"tazyiq"* kabi salbiy ma'nolarni anglatadi. Biroq, mahalliy shevada bu so'z *"ustunlik"*, *"balandlik"*, *"afzallik"* ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan, *"bosimi baland odam"* iborasi ijobiy konnotatsiyada – obro'li, salmoqli shaxsni anglatadi. Bu semantik tafovut lisoniy enantiosemiya holatining yana bir ko'rinishidir. **Dono** – antroponim, "Dono" so'zi *"aqli"*, *"bilimli"*, *"farosatli"* ma'nolarini ifodalab, ijobiy semantik yuklamaga ega. Biroq, mahalliy nutqda bu so'z kinoyaviy tarzda salbiy ma'noda ham qo'llaniladi. Masalan, *"donolik qilibsan-da"* iborasi tanqidiy ohangda, kutilmagan yoki nojo'ya xatti-harakatni kinoya bilan ifodalash uchun ishlatiladi. Bu holat nutqiy enantiosemiya sifatida namoyon bo'ladi. **Ipak** – antroponim, "Ipak" so'zi odatda *"nozik"*, *"muloyim"*, *"nazokatli"* ma'nolarini anglatadi. Bu ijobiy konnotatsiyaga ega bo'lsa-da, mahalliy shevada *"mustahkam"*, *"chidamli"*, *"pishiq"* ma'nosida ham ishlatiladi. Bu ikki ma'no orasidagi semantik tafovut – ya'ni yumshoqlik va mustahkamlik – lisoniy enantiosemiya holatini ifodalaydi. Bu holat tilning semantik tizimida shakl va ma'no o'rtasidagi murakkab munosabatni ko'rsatadi.

Ushbu izoh ma'nosidagi tahlilni quyidagi jadvalda kuzatishimiz mumkin:

Ism	Ijobiy ma'no	Salbiy ma'no	Enantiosemiya turi
Nazar	Qarash, mehr qo'yish	Ko'z tegishi	Lisoniy
Karomat	Mo'jiza, ezgulik	Kinoyaviy salbiy holat	Nutqiy

TILSHUNOSLIK

Bosim	Ustunlik, balandlik, afzallik	Pastga bosish, tazyiq	Lisoniy
Dono	Aqli, bilimli	Kinoyaviy qo'llanish	Nutqiy
Ipak	Mustahkam, chidamli	Nozik, muloyim	Lisoniy

Yuqoridagi misollar Surxondaryo qipchoq shevasida antroponimlar semantik jihatdan murakkab va ko'p qatlamli ekanligini ko'rsatadi. Enantiosemiya hodisasi bu shevada nafaqat leksik darajada, balki nutqiy kontekstda ham faol namoyon bo'ladi. Bu hodisa mahalliy tafakkur, ijtimoiy stereotiplar, madaniy konnotatsiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, antroponimik semantikani chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

XULOSA

Yuqoridagi misollar asosida Surxondaryo qipchoq shevasida antroponimlar semantik jihatdan murakkab va ko'p qatlamli ekanligi aniqlandi. Enantiosemiya holatlari bu shevada nafaqat leksik darajada, balki nutqiy kontekstda ham faol namoyon bo'ladi. Bu hodisa mahalliy tafakkur, ijtimoiy stereotiplar, madaniy konnotatsiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, antroponimik semantikani chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Shuningdek, bu tahlillar tilshunoslikda enantiosemiya hodisasining faqat adabiy til darajasida emas, balki shevalarda ham mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa dialektologik tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar ochadi va mahalliy lingvistik tafakkurni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. – С. 526.
2. Усмонов С. Антонимлар // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – № 2. – Тошкент, 1958. – Б. 38-41.
3. Юсуф Б. Алишер Навоий асарларида энантиосемиялар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 1. – Б. 33-39.
4. Махмудов Н. Зиддият ва маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014. – № 3. – Б. 16-25; Шу муаллиф. Зиддият ва жуфт сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014. – № 5. – Б. 3-9.
5. Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент: ИЯЛ АН РУз, 1984. – С. 4.
6. Одилов Ё. Ўзбек тилида энантиосемия. Фил.фандок. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2016. – 85 б.